

POLISEMIYADA TEJAMKORLIK QONUNI HAMDA UMUMIYLIK
TAMOYILINING AHAMIYATI

Nurmatova Gulnoza Arabjonovna

Farg'ona davlat universiteti Lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi magistrantinurmatovagulnoza795@gmail.com

Qurbonova Sayyora Maxamadaliyevna

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, PhD

Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD

Abstrakt: Ushbu maqolada polisemiya universal til hodisasi ekanligi hamda ko'p ma'nolilikni vujudga keltiruvchi asosiy omillar xususida so'z boradi va aniq misollar yordamida ifodalanadi.

Kalit so'zlar: polisemiya, ko'p ma'nolilik, leksik ma'no, tejamkorlik qonuni, umumiylik printsipli.

Polisemiya universal lingvistik hodisa bo'lib, u har qanday tilda ham salmoqli o'rin tutadi. Semasiologiya fanining asoschilaridan biri, fransuz olimi

M. Breal, polisemiya "So'zning ko'p ma'noliligi - o'zlashtirilgan madaniyat belgisidir", - deb ta'rif beradi [3].

Til boyligi faqat so'zlar, iboralar miqdori bilan emas, so'zlarning leksik ma'nolari miqdori bilan ham o'lchanadi. Polisemiya ma'lum bir so'zning bir necha leksik ma'nolarga ega bo'lish hodisasi sanalib, ana shu so'z ifodalagan leksik ma'nolar (semalar) turli matn yoki gaplarda o'zaro farqlanadi. Bunga misol qilib yetti leksemasining quyidagi ma'nolarini keltirishimiz mumkin:

1) 7 raqami va shu raqam bilan ifodalangan son, miqdor. Yomondan qorovul qo'ysang, yov yetti bo'lar. (Maqol)

2) Vafotning to'rtinchi kuni o'tkaziladigan marosim, ma'raka. Kecha odatga muvofiq nari-beri yetti qilindi. (Oybek, "Qutlug' qon")

Ko'p ma'nolilik til taraqqiyoti davomida kelib chiqadi. Tildagi har qanday so'z, avvalo biror narsa yoki hodisani atash tufayli paydo bo'ladi, ya'ni bir ma'nonigina ifodalaydi. Keyinchalik esa shu so'z taraqqiyoti ma'no tufayli ko'p ma'noli so'zga aylanishi mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi *quloq* leksemasi avval tirik mavjudotlarning tashqi eshitish organini nomlagan bo'lsa, ushlagichli oshxona buyumlari yaratilgandan so'ng uning ushlagichini (*qozonning qulog'i*), keyinchalik radio va televizorning buragichini ham nomlay boshlagan (*radioning qulog'i*).

M.Hakimovning fikriga ko'ra, tildagi **tejamkorlik qonuni** va **umumiylik printsipli** polisemiyaning vujudga keltiruvchi asosiy sabablardan deb ko'rsatiladi. Masalan, o'zbek tilidagi *sichqon* leksemasi yaqin vaqtlargacha kemiruvchilarning bir turini nomlagan bo'lsa, hozirgi paytda kompyuter qurilmalaridan birini ham ataydi. Ya'ni, *sichqon* leksemasi qo'shimcha ikkinchi ma'no hosil qilishi natijasida polisemem leksemaga aylandi. Bu o'rinda yangi anglangan denotat (kompyuterning bir qismi) ma'noga o'zgarar ekan, tilda alohida leksema

hosil qilinmadi, balki mazkur ma'no tashqi o'xshashlik asosida avvaldan mavjud bo'lgan sichqon leksemasiga birlashtirilishi hisobiga bir leksema tejaldi.

M.Hakimova o'z ishida ko'p ma'nolilikni yuzaga keltiruvchi omillar haqida yana shunday deydi: ayrim hollarda polisemiya tejamkorlik tamoyili asosida emas, aksincha, **ortiqchalik printsiipi** asosida ham voqe bo'ladi, bunda nomi mavjud narsalar qaytadan nomlanadi. Masalan, *latta* leksemasi *bo'sh* yoki *noshud* leksemasi ifodalagan ma'noni, *tulki* leksemasi *ayyor* leksemasi ifodalagan ma'noni qaytadan nomlagan. Ortiqchalik printsiipi asosida qayta nomlashdan maqsad kuchli konnotatsiya, emotsional-ekspressivlik hosil qilishdir. Taqqoslang: *tulki odam* - *ayyor odam*, *bo'sh yigit*— *latta yigit*.

Shu o'rinda "**ortiqchalik prinsipi**" atamasini "**ahamiyatlilik prinsipi**" atamasiga o'zgartirish o'rinli deb o'ylayman. Sababi, "ortiqchalik" deyilganda xayolimizda ko'p ham ahamiyat kasb etmaydigan, unchalik kerak bo'lmagan narsa, hodisalar tushunchasi paydo bo'ladi. Aslida esa bu tamoyil vositasida berilgan jumlaning mazmunan boyitish, hissiy-bo'yoqdorlik xususiyatlarini oshirish nazarda tutilgan. Darhaqiqat, yuqorida aytib o'tilgan *latta* va *tulki* leksemalari qolgan ma'nolarga nisbatan bo'rtib, ya'ni ajralib turganligi so'zinning isboti bo'la oladi.

Professor M.Mirtojiyev esa ushbu fikrlarga qarama-qarshi tarzda o'z izlanishlarini quyidagilar bilan izohlaydi: "Narsa nomi bilan uning har qanday belgisini atash ham sinekdoxa bo'lishi mumkin emas. Masalan, *tulki odam*, *yelim bola*, *lochin chayqovchi*, *sher jangchi* kabi birikmalardagi *tulki*, *yelim*, *lochin*, *sher* kabi so'zlar vazifasi o'zgarishi nazarda tutilishi kerak.³⁰ Demak, u ko'chma ma'no hosil qiluvchi sinekdoxa bilan hech qanday aloqaga ega emas, leksik ma'no hosil qilmaydi va polisemantik so'zning vujudga kelishi uchun ham rol o'ynamaydi.

Yuqorida M.Mirtojiyev ta'kidlab o'tgan - *lochin chayqovchi* jumlasidagi "lochin" leksemasi ijobiy, "chayqovchi" leksemasi esa salbiy ma'noni ifodalab kelgan. Haqiqatan ham chaqqonlik, olg'irlik sifatleri lochinga xos, lekin ushbu ikki leksemaning birgalikda birikib kelishi o'zbek tilida nutqiy holatlarda deyarli uchramaydi. Mazkur so'zlarning bunday bog'lanishida mantiqiy nomutanosiblik (oksimoron) kuzatiladi.

Umumlashtirish dunyoni anglashda va o'zlashtirishdagi inson tafakkurining eng xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lib, borliqdagi mavjud narsalar ma'lum bir umumiyliklar asosida birlashtiriladi. Polisemiya ham umumlashtirish asosida hosil bo'ladi. Bir narsaning nomi boshqa bir narsaga nom qilib berilar ekan, albatta, ular o'rtasida umumiylik bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda, bitta leksema bilan ifodalanadigan barcha ma'nolar muayyan umumiyliklar asosida o'zaro bog'liq bo'ladi. Polisemantik umumlashtirish har bir til doirasida o'ziga xos tarzda aks etadi va milliylik xarakteriga ega bo'ladi.

Masalan, o'zbek tilidagi *burun* leksemasi polisemem bo'lib, u to'rtta ma'noga ega:

Burun so'zining dastlabki denotativ ma'nosi - "**hidlash organi**" ni ifodalab keladi. Ikkinchi - "**jo'mrak**" ya'ni *choynakning burni* mazmunida kelganida, shakliy o'xshashlik, ya'ni **metafora** kuzatiladi. Bunday o'xshashlik to'rtinchi ma'no - "kemaning old qismi, tumshug'i" ma'nosiga ham tegishli hisoblanadi.

³⁰ Абдуллаева Л. Метафоралар ва улариинг таржима қилиниши ҳақида баъзи мулоҳазалар, „Ўзбек тили ва адабиёти“, 1965, 1-сон, 63-бет.

Uchinchi - “qulfining kalit soladigan teshigi” ma’nosida kelganida esa yuzga nisbatan burunning joylashish o‘rniga ko‘ra ko‘chim anglashiladi.

Keltirilgan *burun* leksemasining barcha sememalari o‘rtasidagi umumiylik asosan, shakliy o‘xshashlikka asoslanadi va bu holatda ular omonim bo‘la olmaydi, aksincha ko‘p ma’nodlilikni saqlab qoladi.

Umumlashtirish hamda tejamkorlik qonuni asosida esa ma’nolar umumlashtiriladi va ixcham ko‘rinish kasb etadi. Demak, polisemiya olam haqidagi ma’lumotlarni tilda saqlashning eng ixcham va qulay usulidir.³¹

Xulosa qilib aytganda, olam o‘zlashtirilib, inson bilimi oshib borar ekan, leksemaning ma’nolari ham ko‘payib boraveradi. Polisemantik so‘zlarda ma’no qanchalik ko‘p bo‘lmasin, lekin u bir so‘z hisoblanaveradi. Tildagi tejamkorlik va umumiylik tamoyillari esa ko‘p ma’noli so‘zlarning yaralishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdushukurov B. Eski turkiy adabiy til leksikasi. O‘quv qo‘llanma / -Toshkent: TAFAKKUR BO‘STONI, 2015.
2. Абдуллаева Л. Метафоралар ва уларнинг таржима қилиниши ҳақида баъзи мулоҳазалар, „Ўзбек тили ва адабиёти“, 1965, 1-сон, 63-бет.
3. Бреаль М. Подходы к пониманию феномена полисемии. Париж, 1897
4. Hakimova M. Semasiologiya: O‘quv qo‘llanma. T., 2008
5. Namroyev M, Muhamedova D, Shodmonqulova D, Gulomova X, Yo‘ldosheva Sh. Ona tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / T., “IQTISOD-MOLIYA”, 2007.
6. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. -Т., ФАН, 1984.
7. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. -Т., MUMTOZ SO‘Z, 2010
8. Современный русский язык. Под редакцией В.А.Белошапковой. —Москва, «Высшая школа», 1989. —С.197, Hakimova M. Semasiologiya: O‘quv qo‘llanma. T., 2008. – В.52.

³¹ Современный русский язык. Под редакцией В.А.Белошапковой. —Москва, «Высшая школа», 1989. —С.197, Hakimova M. Semasiologiya: O‘quv qo‘llanma. T., 2008. – В.52.